

“OTELLO” NING SAMARQANDGA ILK TASHRIFI



Munira Mahmudovna Mamatkulova

kafedrasi tayanch doktoranti

O’zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”

E-mail: mamatkulovamunira0218@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-9>

Annotatsiya: Maqolada Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat o’zbek drama teatrida ilk bora sahnalashtirilgan ingliz dramaturgi Uilyam Shekspirning jahonga mashhur “Otello” tragediyasi haqida so’z boradi.

Kalit so‘zlar: Samarqand, jahon adabiyoti, tragediya, dramaturg, rejissyor, klassik asar, spektakl,

Аннотация: В статье рассматривается всемирно известная трагедия «Отелло» английского драматурга Уильяма Шекспира, впервые поставленная версия на сцене Самаркандского областного узбекского драматического театра имени Хамида Алимджана.

Ключевые слова: Самарканд, мировая литература, трагедия, драматург, режиссёр, классическое произведение, пьеса.

Abstract: The article examines the world-famous tragedy "Othello" by the English playwright William Shakespeare, the first version staged on the stage of the Samarkand Regional Uzbek Drama Theater named after Hamid Alimjon.

Keywords: Samarkand, world literature, tragedy, playwright, director, classic work, play.

1956 - yilning 18 - fevral sanasi, Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyat o’zbek drama teatri binosi. Teatr sahnasida jahonga mashhur dramaturg Uilyam Shekspirning “Otello” tragediyasi badiiy kengash taqdimoti bo‘lib o’tmoqda. Spektakl rejissyori Toshkent teatr instituti (hozirgi O’zDSMI) “Aktyorlik mahorati” kafedrasi mudiri, dotsent I.V.Rudin. Bir necha yillar Toshkentda iste’dodli rejissyorlar Nikolay Ladigin va Mannon Uyg‘ur hamkorligida sahnalashtirilgan “Otello”spektaklini ko‘rib odatlangan hay’at a’zolari, Samarqandda sahnalashtirilgan “Otello”ning ushbu variantini qanday qabul qilar ekan?..

Rus drama teatri xalq artisti Nina Martinova teatr jamoasini ingliz dramaturgining nodir asarini muvaffaqiyatli sahnalashtirgani bilan qutlab, I.V.Rudinning rejissyorlik mahoratiga va aktyorlarning yorqin ijrosiga yuqori baho beradi. Ayniqsa, aktyor Rustam Mansurov “Otello”ning murakkab obrazini sahnada namoyish etish uchun bor kuchini sarflaganini, aktrisa Zaynab Sodiqova shijoatli, shaddod shu bilan bir qatorda nozik qalb egasi bo‘lgan o‘ziga xos “Desdemona” obrazini yaratganini ta’kidlab o‘tadi.

Ma’lumki, ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir yaratgan qahramonlar jamiyatga, insoniyatga yod deb bilgan illatlarni yo‘q qilish yo‘lida bor kuchi bilan kurashadilar. Shu kurashda ular baxtsizlik va musibatlarga yo‘liqadilar. “Otello” tragediyasi voqealari ham maishiy munosabatlarni tasvirlashiga qaramay, g‘oyasi nihoyatda chuqur bo‘lib, muallif yashagan davrdagi ijtimoiy munosabatlarni ko‘rsatib beradi. Asar voqealari oliyjanob, sofdir – Otello; riyokor, hasadgo‘y – Yago; pok, soddadil, o‘yinqaroq – Desdemona obrazlari orqali rivojlanadi.

“Otello” realistik tasvirga qurilgan asar, unda ingliz dramaturgining boshqa tragediyalaridagi kabi g‘ayri tabiiy qahramonlar (arvoqlar, jinlar) yo‘q. Tragedyaning ana shu “real”ligi uning muvaffaqiyatini ta’milagan va barcha davrlarda o‘z tomoshabiniga ega bo‘lib, “o‘lmas” asarga aylanishiga xizmat qilgan. Balki shu xususiyati bilan ham “Otello” tragediyasi o‘zbek tomoshabiniga manzur bo‘ldi va bir qancha yillar mobaynida teatrlar repertuaridan joy olib

keldi. Asar kompazitsiyasi ma'lum bir intriga atrofiga ustalik bilan qurilgan. 1941 – yil ilk bora poytaxt teatrida sahnalashtirilgan “Otello” spektakli, elliginchi yillardan so'ng viloyat tetrleri tomonidan ham sahnalashtira boshlandi.

Xususan, O'zbekiston SSR xalq artisti Amin Turdiyevning “Sovet O'zbekistoni madaniyati” gazetasida e'lon qilingan maqolasida Samarqand viloyatida sahnalashtirilgan “Otello” spektakli haqida qimmatli ma'lumotlar o'rinni olgan. Tragediyani tomosha qilgan maqola muallifi spektakl rassomi A.P.Pat rashkin tomonidan asarga mos dekoratsiya qurib, sahnada qahramonlar yashagan davr muhitini to'laqonli aks ettira olganini qayd etadi. Amin Turdiyev aktyorlar ijrosini tahlil qilar ekan, bosh qahramon talqini haqida quyidagi fikrlarini bildiradi: “Samarqandda qo'yilgan “Otello” spektaklidagi kishini quvontiradigan fakt shundaki, O'zbekiston xalq artisti Rustam Mansurov o'z “Otello”sini yarata olgan. Rustam Mansurov “Otello”si ham jonli odamga xos bo'lgan xususiyatlarning hammasidan bahramand. U qah-qah otib kuladi, hazil qiladi, jahli chiqadi, erkelaydi, zaharxanda qiladi, yig'laydi... U mehribon, u beshafqat... Dezdemona sevgisidan baxtiyor, behad xursand... u Dezdemonaning muhabbatiga musaffo sevgi bilan javob qaytarishni o'zining odamiy burchi deb hisoblaydi.” Muallif Mansurov ijrosini tahlil qilar ekan, uni birinchi ko'rinishlarda juda osoyishtalik bilan harakat qilganidan tomoshabinga go'yo “rol chiqmagan”day tuyiladi deb yozadi. Lekin bu osoyishtalik tagida zo'r kuch va hissiyotlar yashirinib yotadi. Otello – Mansurov yuzidagi tabassum arimaydi, Dezdemona muhabbatni uni shu qadar maftun etgan. Otello hozir dunyodagi bo'lak narsalarining hammasiga “ikir-chikir” deb qarashi aktyor tomonidan nihoyatda mahorat bilan ijro qilingan. Bundan tashqari birinchi pardanining ikkinchi ko'rinishidagi “Senatdag'i Otello monologi” deb dong chiqargan monolog chinakam alohida qayd qilishga arziyidigan asar parchasidir. Monolog uzundan-uzoq, birinchi qarashda “zerikarli” bo'lib seziladi. Albatta bu “Otello” rolini ijro etuvchi artistdan katta ustalik talab qiladi. Rustam Mansurov bu monologni juda chiroyli qilib, muhim yerlarini qabartib o'qib, uddasidan chiqqa olgani bizni quvontiradi.

Amin Turdiyev Otello ijrochisi Rustam Mansurovning yutug'i – o'z ijodi va jismoniy kuchini, imkoniyatlarini butun spektaklga yetarli va to'g'ri taqsimlab chiqqa olgani deb biladi. Aktyor birinchi pardada baxtiyor, osoyishta Otello obrazida bo'lib, u juda mayin gapirib, ortiqcha harakatlar qilmaydi. Ikkinci pardada esa dushman ustidan qozonilgan g'alaba Otelloni ancha tetiklashtirganini, aktyor ikkinchi pardani ancha zavq bilan ko'tarinki ruhda o'ynaganini aytadi. Uchinchi, eng og'ir pardani Mansurov yana bir necha bo'laklarga bo'lgan holda: “Otello baxtiyor”, “Otello miyasiga quyilgan birinchi zahar tomchisi”, “Yago quygan zahar tomirlarga ta'sir qilmoqda”, “Otelloning baxtli soatlari tugadi” “Dezdemona pok!” “Dezdemona iflos!”, “Intiqom-intiqom” kabi bo'g'lnlarga bo'lib ijro qilish orqali spektakl yakuniga qadar jismoniy kuchini saqlab qola oldi degan fikrni bildiradi.

Shu bilan birga u aktyor ijrosida ma'lum bir kamchiliklar ham ko'zga tashlanganiga guvohlik beradi. “Talantli artistning kamchiliklaridan eng muhimi shuki, u ba'zi so'zlarni tubdan buzib aytadi. Nuqta va vergullarni o'z joyida ishlatmaydi. Buning natijasida jumlalar ma'nosi tomoshabinga buzuq eshitiladi. Shekspirning silliq tuzilgan monologlari o'z qiymatini ancha yo'qotadi.” deya aktyor nutqidagi kamchiliklarni bartaraf qilish zarurligi haqidagi tanqidiy fikrlarini bildiradi. Tushunishimizcha “Otello” ijrochisi aktyor Rustam Mansurov adabiy til me'yorlariga rioya qilishda kamchiliklarga yo'l qo'ygani oqibatida klassik asar badiiy mukammalligiga putur yetkazadi.

“Otello” spektaklining to'laqonli bo'lib chiqishida Dezdemona rolini ijro etgan Zaynab Sodiqova, Yago roolidagi Po'latjon Saidqosimov, Kassio – Melik Ermatov, Montano – O'zSSR xalq artisti Zohid Sodiqov, Radrido – O'zSSRda xizmat ko'rsatgan artist Baqo Tojiyev, Emiliya rolini bajargan Kifoyat Muslimova kabi artistlar ijrosisiz tassavvur qilib bo'lmaydi albatta.

Talantli aktrisa Zaynab Sodiqova o'z Dezdemonasini Shekspir tasviriga yaqinlashtirishga harakat qilgani va uddasidan chiqqa olgani haqida ko'p ma'lumotlar mavjud. Dezdemona – Zaynab Sodiqova ijrosida “mohpariy qiz”, “mute xotin” emas, balki quvnoq, tetik, Otello tabiricha “Tansani, qo'shiqni, kulishni sevADI”gan, o'z zamonasining tushunchalaridan o'zgacha odamiy tushunchalarga ega bo'lgan latofatli va zo'r ehtirosli, go'zal qiz kabi tasvirlangan. Talantli ustoz

aktrisalarimiz Sora Eshonto‘rayeva, Ikroma Boltayeva ijrolarida “Dezdemona” obrazini kuzatib, o‘z ijrosi haqida mukammal tasavvur egallay olgan Zaynab Sodiqova betakror Dezdemona talqinini yarata olganiga shubha yo‘q. Bu fikrimizga yana bir dalil, spektakl rejissyor Dezmomena obrazini chuqurroq ochib berish uchun ham “Majnuntol” sahnasini ham spektaklga kiritgan. Bu sahna ko‘rinishi, “Otello”ning Toshkentda rejissyorlar Nikolay Ladigin va Mannon Uyg‘ur hamkorligida sahnalashtirgan variantida mavjud emas. “Majnuntol” deb ataladigan ushbu sahna so‘ngi ko‘rinishdan oldingi ko‘rinish bo‘lib, voqealar Dezmomena yotoqxonasida aks etadi. Aktrisalar Zaynab Sodiqova (Dezmomena) bilan Kifoyat Muslimova (Emiliya)ning talantlarini namoyish qildiradigan ko‘rinishga aylangan ushbu sahna, Dezmomena obrazi haqida rejissyor talqiniga ham badiiy yakun yasagan. Zaynab Sodiqova ijrosidagi Dezmomena Sora Eshonto‘rayeva ijrosidan tubdan farq qilib, u o‘z obrazining lirik qirralaridan ko‘ra qahramonlik jihatlarini ko‘proq ochib bera oldi.

“Otello” tragediyasida ikki bosh qahramon rolini ijro qiluvchi aktyor mahoratining sinov nuqtasi bu “Ro‘molcha” sahnasi. Aktyorlar tomonidan ushbu sahna talqini haqida quyidagi fikrlar bildirilgan. ““Ro‘molcha” sahnasini bosh qahramon ijrochilari Mansurov hamda Sodiqova baland mahorat bilan o‘ynaganlar. Dezmomena – Sodiqova boshqa narsalar to‘g‘risida gapirar ekan, bu gaplar er xotin o‘rtasidagi judolik soatlarini qisqartirish uchun aytilayotgani sezilib turadi. Ro‘molcha topilmadi. Otello g‘azabi tobora avj olmoqda... Bu sahnani Mansurov bilan Sodiqova baland mahorat bilan o‘ynaydilar.” Otello Dezmemonani o‘ldirish bilan dunyoda axloqiy tartib o‘rnatgandek tuyuladi, lekin Dezmemonasiz hayot, butun jahon bo‘shek tuyuladi. Biroq Dezmomena begunoh, Otelloning adolat, haqiqat uchun qilgan harakati adolatsizlik, o‘zi esa eng katta gunohkor bo‘lib chiqadi. Qahramonning qayg‘usi cheksiz, ruhiy zaiflik, qayg‘u-alnni yengib, taqdirni o‘zgartiraman, deb o‘ylagani amalda “quruq urunish!” U fojiali xatosi uchun o‘z-o‘zidan qasos oladi. O‘zini halok qiladi.

Yago obrazi “Otello” tragediyasi voqealarini harakatga keltirib turuvchi asosiy kuch desak xato bo‘lmaydi. Uning qabih, qora niyati pok, begunoh insonlarning fojeasiga sabab bo‘ladi. Bu rolning yuki og‘ir biroq bu spektakl variantida Yago rolini yosh aktyor Po‘latjon Saidqosimov ijro qilgan. Yago rolini o‘ynagan usta artistlardan – Olim Xo‘jayev yoki Nabi Rahimovlardan “nusxa” ko‘chirmagan holda, o‘z Yagosini yaratishga harakat qilgan. “Saidqosimovning Yagoi – hasadgo‘y, pastkash, yengil tabiat odam. Mansabparast Yago o‘z qora niyatining amalga oshishi yo‘lida hechnarsadan toymaydi. Lekin, Yago roli asar talabiga to‘liq javob beraoladigan “har taraflama mukammal” deydigan holga kelgan emas. Bir qabih fikr ikkinchi qabih fikrni sudrab chiqar ekan, uni aktyor yetarli ravishda baholamaydi. U hali yosh, bu rol ustidagi ijodiy ishini davom ettirishi kerak” degan fikrlarni bildirgan. Boshqa manbalarda ham “Yago” roli ijrochisi yosh aktyor Po‘latjon Saidqosimovda xiylakorlik yetishmayotganligini va obrazni ochib berishda yana ham ko‘proq o‘z ustida ishlashi zarurligi ta’kidlab o‘tilganligiga guvoh bo‘lamiz. Spektaklini tomosha qilgan mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra “Yago”dek tuban, qabix qahramon obrazini to‘laqonli ochib berishda aktyorga nafaqat mahorat, shu bilan birga hayotiy tajriba ham zarur.

Samarqandda “Otello” spektaklining yana bir talqinini sahnalashtirishda rejissyor I.V.Rudinining mehnatlari katta. O‘sha davrda viloyat teatr jamoasi bilan “Otello”dek katta asarni sahnalashtirish anchayin mashaqqatli ish edi. Rejissyor jamoa bilan ham tarbiyaviy, ham ijodiy, ham professionallik jihatidan bir qancha tadbirlarni amalga oshirgan. Uning xizmatlari natijasi o‘laroq, spektaklda yagona bir ansambl yaratilib, asar muallifi g‘oyasini to‘g‘ri taraqqiy ettirishda artistlarga to‘la imkoniyat yaratilgan. Amin Turdiyevning ma’lumot berishicha, “senat” sahnasida rejissyor I.V.Rudin Otello va Dezmemonalar munosabatini yakunlovchi bir detal topganini va Otello bilan Dezmomena, atrofidagilarga sezdirmay, bir-birlari bilan qo‘l siqishib qo‘yadilar deydi. Bu detal yaxshi topilgani va spektaklda shu kabi “mayda”, biroq tomoshabinga o‘sha davrni, munosabatlarni, hodisani to‘la ochib berishda ko‘maklashadigan detallar anchagina bor. Lekin “Ro‘molcha” sahnasida rejissyor artistka Zaynab Sodiqovani noto‘g‘ri tushunchaga olib kirib qo‘yganligini ham aytib o‘tadi. San’atshunosning fikricha Otello “ro‘molcha”, “ro‘molcha!” deb talab qilar ekan, Dezmomena gapni boshqa yoqqa burish, shu yo‘l bilan Otelloni jahldan tushirish niyatida, “Qo‘ying bu gaplarni Kassiodan gaplashaylik” deya Sodiqova bu sahnani boshqacharoq

o‘ynaganini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha Dezdemona “ro‘molcha!” so‘zini qaytaravergan Otellogen xafa bo‘ladi. Teskari buriladi. Dezdemona – Sodiqova go‘yo “e, attang, nega shu qora jaxldor Otelloga tekkan ekanman” deyatgandek tuyilayotganga o‘xshab qoladi. U asarning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan bu sahnani bundayin talqin qilish, xato deb bildi. Spektakldagi bunday kamchiliklarnining bartaraf qilinishi, sahnalashtirilgan asarning badiiy mukammaligini yanada oshirdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kuchli aktyorlar tarkibi shakllanib ulgurgan Samarcand teatri klassik dramaturgiyaning noyob namunalaridan biri bo‘lgan “Otello” tragediyasini muvaffaqiyatli sahnalashtira olgan. Ushbu “Otello” spektakli ham xalqimiz madaniy hayotida muhim xodisalardan biriga aylanganiga shubha yo‘q. Izlanishlar davomida Otelloning turli talqinlari bilan tanishdik. Xattoki ma’lum rejissyorlar talqinida Otello va Dezdemona obrazlari ikkinchi planga o‘tib, aynan “Yago” obrazi birinchi planga olib chiqilgan. Bunday talqin orqali ular yashab turgan jamiyatda Yago kabi insonlar ko‘pligiga ishoralar berishga urinishgan. Fikrimizcha rejissyor I.V.Rudinning talqinida esa Dezdemona obraziga ko‘proq urg‘u berilgan. Rejissyor Dezdemonani Otelloga bo‘lgan sof muhabbat, ayollik sha’ni va iffatini jonidan ham ustun qoyadigan “jasoratli ayol” obrazi sifatida gavdalantirishga urungan. Aktrisa Zaynab Sodiqova o‘z rolini yuksak ehtiros va nafis san’at mahorati bilan ijro etib, rejissyor talabini uddalay olgan. Rejissyor bunday talqin orqali Dezdemoraning tarbiyaviy, jamiyatga o‘rnak bo‘luvchi kuchini yanada oshirmoqchi bo‘lgan. “Majnuntol” sahna ko‘rinishining sahnalashtirilishi ham bu fikrimizni asoslaydi.

“Otello” spektaklining ushbu varianti o‘n yillar mobaynida Samarcand teatri sahnasini bezadi. Teatr jamoasi ushbu spektakl bilan bir qancha gastrollarda ham ishtirot etdi. Spektakl o‘z davrida anchayin muvaffaqiyatlarga erishdi. Keyinchalik Dezdemona ijrochisi aktrisa Zaynab Sodiqova teatrning bosh rejissori lavozimida faoliyat yuritdi va 1977-yilda rejissyor A.M.Grinberg bilan hamkorlikda “Otello” spektaklini yana qayta sahnalashtirdi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turdiyev A. “Otello” // gaz. Sovet O‘zbekistoni madaniyati. T.: O‘zbekiston kompartiyasi Markaziy komiteti nashriyoti № 24. 1956-yil. 31-mart, 3-b.
2. Sulaymonova F. Shekspir O‘zbekistonda // T.: O‘zbekiston SSR “Fan”nashriyoti, 1978- y. 127 - b.
3. Tursunboyev S. Ingliz teatri // Jahon teatri tarixi T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008- y. 56-59 b.
4. Ubaydullayev K. Muhsinov I. “Samarcand oblast teatri Stalinobodda” // gaz. O‘zbekiston madaniyati. T.: O‘zbekiston kompartiyasi Markaziy komiteti nashriyoti № 57 (159) 1957 y. 17-iyul, 3-b.
5. Самаркандский Обл.Уз.Драм театр им Х.Алимджана “Отчёти театра по основным производственным показателям. За 1955-1956 годы” на 27 листах // Самаркандский Областной Государственный архив № 230
6. Самаркандский Обл.Уз.драм театр им. Х.Алимджана/ Протоколы заседаний художественного совета за 1956/ 2с.
7. Мухтаров И.А. Искусство актера узбекской драматической сцены: Дис. ...д-ра искусствоведения. Т.: 1994-г. 41 с.